



AUDITORIYADAN TASHQARI TA'LIM FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI NOTIQLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Usmonjon9994@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar vositasida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalar notiqlik mahoratini rivojlantirishning didaktik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. An'anaviy ta'lim jarayonida notiqlik mahoratini shakllantirish cheklangan bo'lsa-da, raqamli platformalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabaning mustaqil fikrlashi, auditoriya bilan muloqot madaniyati, chiqish uslubi, va vizual-tasviriy nutq imkoniyatlarini kengaytiradi. Maqolada ta'limda Prezi, Padlet, Canva, Zoom, CapCut, Telegram, YouTube va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali notiqlikni rivojlantirish mexanizmlari ochib beriladi. Shu bilan birga, ularni amaliyotga joriy etish strategiyalari, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirish yo'llari, hamda raqamli baholash tizimlarining afzalliklari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: notiqlik mahorati, raqamli texnologiyalar, auditoriyadan tashqari mashg'ulot, kommunikativ kompetensiya, raqamli baholash, ta'lim samaradorligi

Annotation: This article analyzes the didactic and methodological potential of developing students' oratory skills through extracurricular activities using modern digital technologies. While traditional classroom settings often limit speech



development, digital platforms offer new opportunities for cultivating independent thinking, audience interaction, presentation style, and visual-verbal expression. The paper explores mechanisms for enhancing rhetorical competence through tools such as Prezi, Padlet, Canva, Zoom, CapCut, Telegram, and YouTube. It also discusses strategies for practical implementation, ways to strengthen teacher-student communication, and the advantages of digital assessment systems.

Key words: oratory skills, digital technologies, extracurricular activities, communicative competence, digital assessment, educational effectiveness

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические и методические возможности развития ораторских навыков студентов посредством внеаудиторных занятий с использованием современных цифровых технологий. Традиционные формы обучения зачастую ограничивают развитие речи, тогда как цифровые платформы предоставляют широкие возможности для формирования самостоятельного мышления, культуры общения с аудиторией, стиля выступления и визуально-речевой выразительности. В работе представлены механизмы развития ораторского мастерства через использование таких инструментов, как Prezi, Padlet, Canva, Zoom, CapCut, Telegram и YouTube. Также освещены стратегии внедрения в практику, усиления коммуникации между преподавателем и студентами, а также преимущества цифровых систем оценки.

Ключевые слова: ораторское мастерство, цифровые технологии, внеаудиторные занятия, коммуникативная компетентность, цифровая оценка, эффективность обучения

Kirish. Bugungi raqamli transformatsiya jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Oliy



ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va raqamli didaktik resurslarning keng joriy etilishi nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtirmoqda, balki o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va notiqlik kompetensiyalarini shakllantirishda ham yangicha metodik imkoniyatlar ochmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida aynan zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu esa o'qituvchilar va pedagog olimlar zimmasiga yangicha yondashuvlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mas'uliyatini yuklamoqda[1].

Ta'lim jarayonida notiqlik mahoratini rivojlantirish masalasi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bugungi globallashuv davrida talaba-yoshlar o'z fikrini lo'nda, asosli va ta'sirchan ifodalay oladigan, jamoat oldida chiqish qiladigan, o'z pozitsiyasini himoya eta oladigan shaxslar sifatida yetishishlari zarur. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, notiqlik faqat adabiy nutq yoki filologik kompetensiyaga tegishli emas, balki pedagogik, ijtimoiy, siyosiy va kasbiy muvaffaqiyatga ta'sir ko'rsatuvchi universal kompetensiyadir.

Ta'lim psixologiyasida tan olingan asosiy yondashuvlardan biri bu -bilimlarni faollik va motivatsiya bilan o'zlashtirishda multimodal vositalardan foydalanishdir. Bugungi kunda talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari, raqamli platformalarda tashkil etiladigan mashg'ulotlar, masalan, onlayn debatlar, virtual ma'ruzalar, video-chiqishlar tahlili, sun'iy intellekt orqali qayta aloqa olish, ijtimoiy tarmoqlarda chiqish tayyorlash va tahlil qilish kabilar muhim vositaga aylanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning muloqotga kirishish qobiliyatini, ritorik strategiyalarni o'rganishini, fikrni lo'nda bayon qilish madaniyatini shakllantirishda sezilarli samara beradi.



Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar quyidagi afzalliklarga ega: avvalo, ular talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini ta'minlaydi; ikkinchidan, o'z-o'zini baholash, takomillashtirish, ko'rgazmali tahlil qilish, emotsional fikr bildirish, vizual tasavvur orqali tushunishni kuchaytiradi. Shuningdek, o'qituvchi uchun bu jarayon didaktik nazoratni soddalashtiradi va baholash mezonlarini ob'ektivlashtiradi. Raqamli metodik vositalarning ta'limdagi integratsiyasi borasida so'nggi yillarda yaratilgan metodik qo'llanmalarda pedagoglar uchun multimediasiy taqdimotlar, vizual notqlik mashqlari, real vaqtli fikr almashuv platformalari (masalan, Padlet, Mentimeter, Zoom Breakout Rooms) orqali notqlikni rivojlantirish bo'yicha samarali yondashuvlar bayon etilgan[2].

Xalqaro tajribalarda ham notqlikni raqamli vositalar orqali rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yaponiya, Singapur, Estoniya kabi davlatlar ta'lim tizimida raqamli ritorika loyihalari orqali o'quvchilarni yoshligidan muloqotga kirishish, auditoriya oldida chiqish qilish, onlayn nutq shakllantirishga o'rgatish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilgan. Bu esa bizning sharoitda ham zamonaviy raqamli texnologiyalarni nafaqat yordamchi, balki asosiy didaktik vosita sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti raqamli transformatsiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yangi texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi nafaqat bilim berish shakllarini, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikativ jarayonning butun strukturasini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Raqamli vositalarning kundalik hayotda, xususan, yoshlar orasida keng qo'llanilishi o'quv jarayonini ham shu muhitga moslashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Pedagogik jarayonda raqamli vositalar faqatgina texnik qulaylik emas, balki didaktik ahamiyatga ega bo'lgan metodik vosita sifatida qaralishi kerak. Chunki zamonaviy ta'limning mohiyati talabaning faolligini oshirish, uning



mustaqil fikrlashini shakllantirish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Notiqlik mahorati esa bu jarayonlarning markazida turuvchi asosiy kommunikativ ko'nikma sifatida talqin etiladi.

Raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etilgan ta'limiy faoliyatlar, jumladan, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabaning qiziqishini oshiradi, o'z fikrini multimodal shakllarda ifodalash, ovoz, tasvir, grafik, animatsiya va raqamli muloqot muhitida nutqiy chiqishlar qilish imkonini yaratadi. Masalan, Prezi, Mentimeter, Padlet, Kahoot, Canva, CapCut, Telegram-botlar yoki Zoom kabi platformalarda tayyorlangan chiqishlar talabaning ritorik salohiyati bilan birga, raqamli savodxonligini, kreativ fikrlashini, ma'lumotni qayta ishlash va strukturalash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida bunday multimedaviy vositalar notiqlik mahoratining asosiy komponentlari-lo'ndalik, ishonarlilik, auditoriya bilan muloqot, intonatsiya, tana tili va ta'sirchanlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli ham zamonaviy pedagogik adabiyotlarda raqamli kommunikatsiya vositalari notiqlikni rivojlantiruvchi yangi pedagogik imkoniyat sifatida alohida baholanmoqda.

Notiqlik mahoratining rivojlanish mexanizmlarini tadqiq etgan mahalliy va xorijiy mualliflarning ta'kidlashicha, talaba nutqi ko'proq amaliy mashg'ulotlar, muloqot jarayoni, guruh oldida chiqish, bahs-munozara, taqdimot, video-pitch yoki podkast tayyorlash davomida shakllanadi. Raqamli texnologiyalar aynan shu jarayonlarni tezlashtiradi va kengaytiradi: talaba xohlagan vaqtda o'z nutqini takror tinglashi, tahlil qilishi, o'qituvchidan yoki sun'iy intellektdan teskari aloqa olishi, nutqidagi fonetik, grammatik yoki mantiqiy kamchiliklarni ko'ra olishi mumkin. Bunday yondashuv notiqlikni faqat auditoriyada emas, balki uzluksiz o'rganiladigan amaliy kompetensiyaga aylantiradi.



Raqamli ta'limning nazariy asoslarini yoritgan S. Po'latovning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar ikki asosiy funksiyani bajaradi: birinchisi -bilimlarni vizual va interaktiv shaklda yetkazish; ikkinchisi -talabaning kommunikativ faolligini oshirish orqali uning mustaqil fikrlash jarayonini rag'batlantirish[3]. Bu qarash notiqlik mahoratini rivojlantirish jarayoniga bevosita daxldor, chunki nutq faolligi ko'proq interaktivlik, raqamli muloqot, fikr almashish va bahs orqali shakllanadi.

Raqamli vositalarning notiqlik mahoratini rivojlantirishdagi o'rni M. Toshboyeva tomonidan ishlab chiqilgan "Nutq madaniyati" konsepsiyasida ham qayd etilgan bo'lib, unda zamonaviy muloqot muhiti nutq madaniyatining mazmunini kengaytirishi, muloqotning yangi shakllari -video-nutq, online taqdimot, podkast, vlog kabi janrlarni yaratishi aytiladi. Mazkur jarayonlar talabalarda nafaqat adabiy nutq, balki texnik va vizual nutq madaniyatini ham shakllantiradi[4].

Raqamli didaktikani raqamli vositalarning notiqlikka ta'siri quyidagi jihatlar bilan izohlanadi: vizual xotiraning faol ishlashi, kontentni tez tahlil qilish, auditoriya e'tiborini jalb qilish strategiyalarini raqamli muhitda o'rganish, real vaqt rejimida interaktiv fikr almashish va talaba nutqini video orqali baholash imkoniyati. Bularning barchasi ta'lim jarayonida notiqlikni o'rgatishning samaradorligini sezilarli oshiradi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalari yordamida tashkil etilgan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalarda "raqamli ritorika" tushunchasini shakllantiradi. Bu tushuncha -nutqni faqat matn sifatida emas, balki raqamli obrazlar, grafiklar, vizual belgilar, ovoz, animatsiya va auditoriya bilan raqamli o'zaro aloqada shakllantirish degan ma'noni anglatadi. Shu bois, bugungi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar yordamida notiqlik mahoratini rivojlantirish pedagogik nuqtai nazardan nafaqat zamonaviy, balki zaruriy yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.



Umuman olganda, raqamli texnologiyalar notiqlik mahoratini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- talabaning nutqiy faolligini oshiradi;
- multimediaviy ifoda shakllarini qo‘llash imkonini yaratadi;
- o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash ko‘nikmasini shakllantiradi;
- nutq psixologiyasini rivojlantiradi;
- auditoriya bilan ishlashda yangi usullarni o‘rgatadi;
- pedagog uchun teskari aloqani tez va aniq tashkil qilish imkonini beradi.

Shu jihatdan qaralganda, raqamli texnologiyalar notiqlikni shakllantirish pedagogikasida yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Auditoriya dan tashqari faoliyatlar ta’lim jarayonida talabaning ijodiy va nutqiy faolligini kuchaytirish uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, notiqlik mahoratini shakllantirish jarayonida bu faoliyat turlari -debat klublari, video-pitch loyihalari, podkastlar, vloglar, onlayn taqdimotlar va tahlil mashg‘ulotlari -muhim imkoniyatni ochib beradi. Bunday mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalar yondoshish sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan, talaba guruhi onlayn platformada (Webinar, Zoom, Teams) debatlarga tayyorlanishi, Telegram kanali orqali mikro-podkastlar joylashtirishi, YouTube yoki TikTok orqali o‘z nutqini yozib, vizual va audio tahlil qilishi mumkin. Ushbu shakllar talabaning o‘z nutqini qayta ko‘rib chiqishi, xatolarini anglab yetishi va takomillashtirish imkoniyatini taqdim etadi.

Raqamli shakllardagi mashg‘ulotlar notiqlik mahoratini rivojlantirishda bir qator afzalliklarni taklif etadi. Bularning birinchisi -talabaning muloqotga kirishish darajasini oshiradi. Masalan, virtual debat klublari yoki onlayn taqdimotlarda talaba real auditoriya oldida bo‘lmasada, video orqali global auditoriyaga chiqish tajribasini oladi. Bu uning psixologik tayyorgarligini oshiradi, noto‘g‘ri intonatsiya, auditoriya bilan vizual aloqaning yo‘qligi, mikrofon va ekran orqali muloqot qilish



bilan tanishish imkonini beradi. Ikkinchidan -raqamli vositalar yordamida talaba o'z chiqishlarini auditoriyadan mustaqil tahlil qilishi, o'zini baholashi va takomillashtirishi mumkin. Masalan, video yozuvda nutqdan keyin talaffuz, tana tili, intonatsiya, mimika, timing kabi jihatlar ko'rib chiqilishi, o'qituvchi yoki mentor tomonidan elektron rubrika asosida qayta aloqa berilishi mumkin. Uchinchi -raqamli muhit talabaning ijodiy va vizual ifoda shakllarini kengaytiradi: talaba prezentatsiyasini grafika, animatsiya, videomontaj yordamida tayyorlashi, bu orqali o'z nitqini yanada ta'sirchan qilish imkonini oladi.

Ayniqsa, "virtual muhiti"ning o'ziga xos imkoniyatlari notiqlik mashg'ulotlarini kengaytiradi. Talaba ilgari faqat auditoriyada amalga oshirgan chiqish ishini endi Zoom yoki YouTube orqali amalga oshiradi, chiqishini to'liqlantirish, mikrofon va kamera orqali auditoriya bilan vizual muloqotga kiradi va chiqishining videoqaratini oladi[5]. Bunday jarayonlarda talabaning nutqga tayyorgarligi, o'z auditoriyasi oldida kiyimi, tashqi ko'rinishi, fon va texnik jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Telegram yoki padlet platformalarida guruh ichida nutq bo'yicha mikro-challenge'lar tashkil etilishi, talabalarning video-nutqini yuklash, o'zaro baham ko'rish va do'stlaridan teskari aloqa olish imkonini beradi -bu esa nutqiy kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, talaba o'z nutqini audio- yoki video-formatda yozib, keyin uni tahlil qilishi va kerak bo'lganda qayta ishlashi mumkin. Bu jarayon "replay-refine" printsipligiga asoslangan bo'lib, nutq shakllanishida iterativ jarayonni yaratadi[6]. Bu bilan talaba oddiy auditoriya mashg'ulotlaridan ko'ra tezroq, ko'proq tajribaga ega bo'ladi. Shuningdek, raqamli platformalar real vaqtli vaqtda muloqot qilmasligi mumkinligi sababli talaba o'zicha tayyorgarlikdan o'tib, chiqishini mukammallashtirishi mumkin -bu esa uning xavotirini kamaytiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Onlayn formatda tashkil etilgan notiqlik mashg'ulotlari ham o'ziga xos keltirib chiqaradigan sharoitlarni talab qiladi: texnik jihozlar, internet aloqasi,



ovoz-kamera sifatlari, sharoitga mos fon tanlashi, vaqtni boshqarish va tinglovchilar bilan virtual interaktivlik o'rnatish kabi. Shu o'rinda o'qituvchi metodik jihatdan talabalarga raqamli chiqishlarini tayyorlash bo'yicha ko'rsatma berishi, kerakli platformalarni tanlashi va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur. Masalan, Zoom vebinarida nutq qilishdan oldin kamerani sozlash, mikrofon sinovidan o'tish, chiqish matnini vizual qism bilan uyg'unlashtirish, analitik sahifa tayyorlash bo'yicha tayyorgarlik talab etiladi.

Bundan tashqari, talaba chiqishidan keyin qaror-qabul qilish tahlili o'tkazilishi muhim: video-yuklama, sinovchi auditoriya oldida nutq qilish, do'stlar yoki mentor bilan bahs-munozara, feedback olish va nutqni qayta tayyorlash. Bu jarayon nutqiy kompetensiyani tezroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli shakllar orqali o'quvchi guruh bilan parallel ravishda virtual "notiqlik sahnasi"ga kirishi, global omma oldida chiqish qilish imkonini oladi, bu esa uni o'z-o'zini baholash jarayoniga va tanqidiy fikrlashga yo'naltiradi.

Notiqlik mashg'ulotlarini raqamli asosda tashkil qilish, birinchi navbatda, o'qituvchining texnologik savodxonligiga, ikkinchidan, metodik rejalashtirishga, uchinchidan, o'quvchilarning faol ishtirokiga tayanadi. Raqamli vositalarni ta'lim amaliyotiga joriy etishda ularni bevosita didaktik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, talaba nutqining rivojlanish dinamikasiga mos ravishda bosqichma-bosqich tatbiq etish muhimdir. Zero, texnologiya o'z-o'zidan natija bermaydi; u faqat didaktik yechimlar vositasida ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Avvalo, notiqlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli metodlar an'anaviy o'qitish shakllariga integratsiyalashgan holda rejalashtirilishi lozim. Masalan, o'qituvchi darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun maxsus "Digital Eloquence Plan" (raqamli notiqlik rejalari) tuzib, unga individual va guruhviy topshiriqlarni, multimediaviy chiqishlarni, video-feedback tahlillarini, sun'iy intellekt asosidagi baholash vositalarini kiritadi. Bu esa talabaga qiziqarli, innovatsion, mustaqil ishlashga yo'naltirilgan faoliyatni



taklif etadi. Jumladan, “Zoom nutq marafoni”, “Telegram orator-challenge”, “CapCut orqali ijtimoiy nutq loyihasi”, “YouTube video-pitch sharhi” kabi shakllar o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi va ularni zamonaviy nutq muhitiga olib kiradi. Bunday mashg‘ulotlar o‘ziga xos loyiha asosida o‘rgatish (Project-Based Learning), muammo asosida o‘rgatish (Problem-Based Learning), hamda bahs asosida o‘rgatish (Debate-Based Learning) yondashuvlari bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, ta’limiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim omil -bu metodik qurollarning tanlanishidir. Raqamli vositalar orasida ayniqsa Canva (vizual taqdimotlar), Padlet (fikrlar devori), Mentimeter (real vaqtli interaktiv savollar), Loom yoki OBS Studio (ekranli chiqishlar tayyorlash), Google Jamboard (onlayn doska), ChatGPT va Copilot kabi AI vositalar (strukturaviy tahlil va teskari aloqa), Screencastify (video ta’lim) keng qo‘llanilishi mumkin. Bular orqali talabalar o‘z chiqishlarini nafaqat tayyorlaydi, balki tahlil qiladi, o‘zgartiradi va mukammallashtiradi. Har bir topshiriqga alohida baholash mezonlari, refleksiya formasi va mulohaza maydoni yaratiladi. Bu esa talabaning shaxsiy o‘shirishini monitoring qilishda va o‘zini baholash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali bo‘ladi[7].

Raqamli mashg‘ulotlarni amaliyotga joriy etishda yana bir muhim omil -bu ularni me’yorlashtirish va tizimlashtirishdir. Raqamli notiqlik mashg‘ulotlari faqat “bir martalik loyiha” sifatida emas, balki bosqichli, tizimli va reflektiv yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur. Har bir talabaning chiqishi oldidan “tayyorgarlik -sinov -chiqish -teskari aloqa -o‘zgarish” zanjiri asosida ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha monitoring o‘rnatiladi. Shuningdek, baholashda an’anaviy reytingdan tashqari, “raqamli rubrika”, “peer feedback” (o‘zaro baholash), “video comment” (video tahlil) kabi shakllar tatbiq etiladi. Bu nafaqat o‘qituvchining ob’ektiv bahosini, balki o‘quvchining o‘ziga nisbatan tanqidiy yondashuvini kuchaytiradi. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llaridan yana biri -mentorlik asosidagi raqamli



muloqotdir. Har bir talaba o‘z chiqishini tayyorlashda mentor-o‘qituvchidan video-izoh, tavsiya, sharh olishi mumkin. Bu esa talabaning notqlikdagi kamchiliklarini tez aniqlash, yechim topish, mashq qilish va takroriy chiqish orqali o‘shish trayektoriyasini yaratadi. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etilgan mashg‘ulotlarni amaliyotga joriy etish faqat texnologiyani bilish emas, balki uni ta’limiy va shaxsiy rivojlanishga xizmat qildiradi olish bilan belgilanadi. O‘qituvchi va talaba raqamli vositalarni nutqiy salohiyatni rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilgan taqdirdagina, ta’lim sifati oshadi. Bunday yondashuv esa, o‘z navbatida, kommunikatsion psixologiya, zamonaviy didaktika, vizual pedagogika, loyiha asosida ta’lim kabi yondashuvlar bilan uzviy integratsiyada mavjud bo‘lishi kerak. Natijada, notqlik mashg‘ulotlari “teoretik fan” doirasidan chiqib, amaliy nutq faoliyatining organik bir qismiga aylanadi

Xulosa: Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’limning ajralmas va strategik komponentiga aylanib, ayniqsa auditoriyadan tashqari faoliyatlarda notqlik mahoratini rivojlantirish borasida keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. An’anaviy o‘qitish shakllariga nisbatan raqamli asosda tashkil etilgan mashg‘ulotlar nafaqat talabaning nutqiy salohiyatini oshirish, balki uning shaxsiy rivojlanishiga, jamoaviy fikrlashga, ijodiy yondashuvga va raqamli muhitda kommunikatsiya yuritish qobiliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan chiqishlar, video-pitchlar, virtual bahslar, multimedaviy taqdimotlar, onlayn mentorlik, teskari aloqa va sun’iy intellekt orqali baholash kabi metodlar natijasida o‘quvchi o‘zini real hayotdagi muloqot sharoitlariga moslashtira oladi. Bu esa notqlikni faqat nazariy bilim emas, balki amaliy, tahliliy va reflektiv faoliyatga aylantirish imkonini beradi.



Mazkur o'zgarishlarning samaradorligi esa bevosita o'qituvchining texnologik va metodik tayyorgarligiga, ya'ni raqamli pedagogik kompetensiyalar darajasiga bog'liq. Chunki raqamli texnologiyalar -bu vosita; unga jon kiritadigan, uni didaktik jarayonga uyg'unlashtiradigan -bu pedagogning o'zi. Shu bois, o'qituvchilar raqamli vositalardan foydalanishni nafaqat texnik ko'nikma, balki metodik strategiya sifatida qabul qilishlari, ularni o'quvchilar psixologiyasiga moslashtira olishlari, va eng muhimi, kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida baholashlari zarur. Shuningdek, talabalarda faqatgina nutqiy salohiyat emas, balki raqamli madaniyat, o'z-o'zini tahlil qilish, ko'rgazmali fikr bildirish, vizual va audio vositalar orqali muloqot yuritish, teskari aloqa orqali o'zini takomillashtirish, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash, va eng muhimi, shaxsiy mas'uliyat hislarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Ayniqsa, global raqamli kommunikatsiya muhitida faol shaxs sifatida ishtirok eta oladigan, o'z fikrini ochiq, asosli va madaniyatli tarzda ifoda eta oladigan zamonaviy mutaxassisni tarbiyalashda bu yondashuvlarning ahamiyati beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y. 06/22/60/008-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Salimova D.A. "Raqamli didaktika: nazariya va amaliyot". – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023. – B. 37–40.
3. Po'latov S. Raqamli pedagogika asoslari. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. -184 b. (41-bet).



4. Toshboyeva M.X. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. -Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. -212 b. (88–89-betlar).
5. Baxtiyorjonova M. The importance of multimedia in teaching speaking to young learners. -(Metodik qo‘llanma shaklida), ... 2025. (23-26-betlar)
6. Mamarajabov M.E. Technologies of digital didactics. - 2022. (112-115-betlar)
7. Madrahimov A.T., Qodirov T.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida innovatsion darslarni tashkil etish metodikasi. -Toshkent: O‘zbekiston pedagogik innovatsiyalar markazi, 2021. -175 b. (103-bet).